ВОЗОБНОВЛЕНИЕ ДОБЫЧИ ПРИРОДНОГО ГАЗА ИЗ ТРЁХ СКВАЖИН УЧАСТКА ХОДЖАСАЯТ ГКМ ДЕНГИЗКУЛЬ	758
Набиев Шахзод Темурович, Иргашбаев Шохрух Фаррух угли, Маннафов Улугбек Умар угли	
MADANIY TURIZM INDUSTRIYASINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	764
Toxirov Dilyor Davlatovich	
MOLIYAVIY AUTSORSING NAZARIYALARI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	768
Babadjanov Umiddbek Kamildjanovich	
TURIZM – TARIXIY XOTIRA VA ZAMONAVIY XIZMATLAR UYG'UNLIGI IFODASI	773
Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINING MOHIYATI VA BAHOLASH MEZONLARI	777
Abdikarimova Zilola Baxramovna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI	784
Ro'ziyeva Shaxlo Salimboyevna	
AXBOROT TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH VA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISHNI QO'LLAB-QUVVATLASH	788
Samiyeva Maftuna Faxriddin qizi	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI DAROMADLILIGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	791
Sanayev Javoxir Shovkat o'g'li	
FISCAL, MONETARY, AND CUSTOMS-TARIFF POLICIES IN ENSURING NATIONAL ECONOMIC STABILITY: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN.....	796
Maxmudov S.T.	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКИХ КЛАСТЕРОВ	801
Юсупова Н.Т.	
SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY O'SISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY FAKTORLAR TAHLILI	807
Rahimova Mushtariybegim Muxammadg'olib qizi	
DEMOGRAFIK O'ZGARISHLAR VA ULARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY OQIBATLARI.....	812
Abdumalikova G.F.	
MINTAQAVIY INVESTITSIYA SIYOSATINI SAMARALI BOSHQARISHNING IQTISODIY VA INSTITUTSION ASOSLARI	821
Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	
RAQAMLI AVIATSIYA EKOTIZIMI: AI/ML, DIGITAL TWIN VA BLOKCHEYN INTEGRATSIYASI	828
Azimova Moxinur Nozimovna	
XALQARO MOLIYA BOZORLARIDA INVESTITSIYA RISKLARINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI	834
G'afurov Sherzod Abduvaxob o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATINING REKREATSIYA RESURSLARI VA DAVOLASH-SOG'LOMLASHTIRISH TURIZMI SALOHİYATI	839
Murtazayeva Gulrux Isabek qizi	
MINTAQALAR TURISTIK-REKREATSION IMKONIYATLARINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY GIS USULLARINI QO'LLASH (SARIOIYO TUMANI MISOLIDA)	845
Safarov Manuchexr Axtam o'g'li	
XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH	852
Tirkashev Farruxjon Xolyigitovich	
TURIZM FAOLIYATINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHGA OID NAZARIY BILIMLARINING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI	857
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	



TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASI MUSTAHKAMLIGINI BAHOLOVCHI KO'RSATKICHLAR TIZIMI	863
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	871
Maxsudov Sherzod Solijonovich	
FISCAL, MONETARY, AND CUSTOMS-TARIFF POLICIES IN ENSURING NATIONAL ECONOMIC STABILITY: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN.....	877
Mahmudov Sarvar	
ATROF-MUHITGA OID FISKAL KO'RSATKICHLAR ASOSIDA MINTAQAVIY BAHOLASH	882
Zilola Rahmatova	
XORAZM VILOYATI TUMANLARIDA EKSPORT SAMARADORLIGI: STOXASTIK CHEGARAVIY TAHLIL (SFA) ASOSIDAGI EMPIRIK YONDASHUV	887
Fozil Xolmurotov	
МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОЦЕНКИ БЕДНОСТИ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПОДХОДЫ И НАЦИОНАЛЬНАЯ СПЕЦИФИКА.....	900
Мамаризоев Жахонгир Isoхонович	
EKOLOGIK VAZIYAT VA AHOLI SALOMATLIGINING PROGNOZ KO'RSATKICHLARI	905
Egamqulov Husniddin Erkaboyevich	
CHO'L HUDUDLARIDA TURISTIK RESURLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	911
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Mavlonov Ahmadjon Muhammadovich	
КОНЦЕПЦИЯ ИДЕНТИФИКАЦИИ И ИЗМЕРЕНИЯ ЭФФЕКТОВ ЗАНЯТОСТИ В ЭКОЛОГО-ОРИЕНТИРОВАННОЙ ЭКОНОМИКЕ	918
Сагидуллин Фарид Радикович	
ТЕНДЕНЦИИ В РАЗВИТИИ ГОСТИНИЧНОГО БИЗНЕСА В СФЕРЕ ПРОДВИЖЕНИЯ И СБЫТА ТОВАРОВ И УСЛУГ В ИНДУСТРИИ ГОСТЕПРИИМСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	927
Бабаджанова Лола Шопулатовна	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA OZIYQ-OVQATNI RIVOJLANTIRISHDA QISHLOQ XO'JALIGINING ROLI.....	935
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich, Bustonov Komiljon Kumakovich	
TURISTIK MINTAQALARNI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY AHOLINING ISHTIROKINI TA'MINLASHNING AYRIM MASALALARI	943
Abduxamidov Sarvar Adxamovich	
TA'LIM KLASSTERLARI KONTEKSTIDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA STRATEGIK YECHIMLARI: TRIPLE HELIX MODEL ASOSIDA TAHLIL.....	947
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA ISTIQBOLLARI.....	954
Xamdullayeva Gulhayo Ergash qizi	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI	960
Sirojiddinov Kamoliddin	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	967
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
AGROTADBIRKORLIK FAOLIYATINING ASOSIY FUNKSIYALARI VA RIVOJLANISH QONUNIYATLARI.....	971
Nasriddinov Xusanbek Sadriddin o'g'li	
TEMIR YO'L TRANSPORTIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARI	976
Abdusattorov Abdusamat Sobirovich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHDA MENEJMENT QARORLARINING IQTISODIY TAHLILI	981
Karieva Gulnora Abdullayevna , Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA O'QUV DASTURLARINING KAPITAL ZICHLIGI	989
Dusanov Salim Mamarasulovich	



QATTIQ CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA INNOVATSION MENEJMENTNING O'RNI VA AHAMIYATI	995
Temirov Azizbek Voit o'g'li	
STRATEGIK REJALASHTIRISH ORQALI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH	1002
G.Ya. Muxibova, O.U. Sharifxodjayeve, O. To'rabekova	
ДЕТЕРМИНАНТЫ И ПОСЛЕДСТВИЯ МЕЖРЕГИОНАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ РАБОЧЕЙ СИЛЫ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1009
Шакаров Зафар Гаффорович	
TURIZM KLASSTERLARIDA TIBBIY XIZMATLAR INTEGRATSIYASI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1018
Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi, Farxodova Shohnnoza Umidbek qizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRUVCHI ZAMONAVIY YONDASHUVNI ISHLAB CHIQISH	1027
Xojiyeva Nazokat Davronbekovna	
QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARINING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: O'ZBEKISTON MISOLIDA.....	1034
Shodiyeva Zarinnabonu Shodi qizi	
O'ZBEKISTON QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1039
Qurbaniyozov Shaxzodbek Karimovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1044
Qurbanbayev Jurabek Eruvboyevich	



RAQAMLI IQTISODIYOTDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

Qurbanbayev Jurabek Eruvboyevich

Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti “Bank ishi va buxgalteriya hisobi” kafedrası dotsenti, i.f.n.

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda hisob siyosatining zaruriyati va ahamiyati, uni shakllantirishga qo'yilgan talablar hamda unga ta'sir etuvchi omillar atroflicha yoritilgan. Shu bilan birga, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida hisob siyosatini shakllantirishning metodologik asoslari ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Maqolada hisob siyosatiga oid iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlari va fikr-mulohazalari, shuningdek, hisob siyosatiga oid me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish masalalari ham keng yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: hisob siyosati, hisob siyosatini tanlash, hisob bahosidagi o'zgarishlar, hisob siyosatini qo'llash.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the necessity and significance of accounting policy in Uzbekistan, the requirements for its formulation, and the factors influencing it. It also presents the methodological foundations for developing accounting policies based on international financial reporting standards. Furthermore, the article discusses the scientific opinions and perspectives of economists on accounting policy, as well as the issues related to improving the regulatory framework governing accounting policy.

Key words: accounting policy, selection of accounting policy, changes in accounting valuation, application of accounting policy.

Аннотация. В статье подробно раскрыта необходимость и значение учетной политики в Узбекистане, требования к её формированию и факторы, оказывающие влияние на данный процесс. Также представлены методологические основы формирования учетной политики на основе международных стандартов финансовой отчетности. В работе отражены научные взгляды и мнения экономистов по вопросам учетной политики, а также рассмотрены направления совершенствования нормативных документов, регулирующих учетную политику.

Ключевые слова: учетная политика, выбор учетной политики, изменения в учетной оценке, применение учетной политики.

KIRISH

Globalashuv jarayoni mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy o'sishni yanada yuqori cho'qqiga olib chiqmoqda. Bu esa korxonalarni o'z moliya-xo'jalik faoliyatini qayta ko'rib chiqishga hamda rivojlanish uchun yangi imkoniyatlarni izlashga undamoqda. So'nggi yillarda korxonalar tomonidan xalqaro standartlarga muvofiq moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etishda yetarli ilmiy hamda amaliy metodologik asoslarning mavjudligi talab etilmoqda.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi 4611-sonli¹ “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarorida amaldagi buxgalteriya hisobining milliy standartlarini MXXSga muvofiq uyg'unlashtirish masalasi belgilab berilgan [1].

“Hisob siyosatlari, hisoblab chiqilgan baholardagi o'zgarishlar va xatolar” deb nomlangan 8-son BXXSda quyidagi ta'rif berilgan: “Hisob siyosati — bu tashkilot tomonidan moliyaviy hisobotni tayyorlashda va taqdim etishda qo'llaniladigan muayyan tamoyillar, asoslar, umumqabul qilingan shartlar, qoidalar hamda amaliy yondashuvlardir” [2].

Respublikamizdagi BXMSda esa quyidagi ta'rif keltirilgan: “Hisob siyosati — tashkilot moliyaviy hisobotni tayyorlash va tuzish uchun foydalanadigan maxsus prinsiplar, konvensiyalar, tartiblar hamda amaliy yondashuvlarni ifodalaydi” [3].

Ushbu ta'riflardan ko'rinish turibdiki, bir vaqtning o'zida buxgalteriya hisobini yuritish va hisob siyosatini shakllantirish jarayonlariga xo'jalik subyekti rahbari mas'ul shaxs sifatida yondashgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.02.2020 yildagi PQ-4611-son <https://lex.uz/docs/-4746047>



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hisob siyosatiga berilgan ta'riflar va uning mazmunini ifodalovchi fikrlar masalasida xorijiy tajribaga murojaat etiladigan bo'lsa, hisob siyosati turli mamlakatlarda umumiy maqsadga xizmat qilishi aniq ko'rinadi.

Hisob siyosatini shakllantirish borasida iqtisodchi B. Jo'rayev tomonidan quyidagi ilmiy ta'rif ilgari surilgan:

"Hisob siyosati — xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va moliyaviy hamda boshqa hisobotlarni tuzishning huquqiy-me'yoriy hujjatlar bilan tasdiqlangan, muqobil variantlardan ma'quli tanlanib shakllantirilgan, o'zaro uzviy aloqador tamoyillar, talablar, shakllar, usullar va vositalar tizimidan iborat ichki tartibga soluvchi hujjatdir" [4].

Yuqoridagi ta'riflardan kelib chiqib, umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, hisob siyosati — bu korxonalarning moliyaviy hisobotlarini tuzish, tayyorlash va taqdim etish bo'yicha tartib hamda ko'rsatmalarni o'zida ifodalab, korxonaning moliyaviy holatining aniq tasvirini beruvchi tizimdir.

Mazkur fikrlarni umumlashtirgan holda quyidagi ta'rif shakllantirilgan: Hisob siyosati — bu tadbirkorlik subyekti tomonidan moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda va taqdim etishda qo'llaniladigan muayyan tamoyillar, usullar, odatlar, qoidalar hamda amaliyotlardan iborat majmuadir.

Hisob siyosati muhim ahamiyatga ega, chunki u barcha kompaniyalar amal qiladigan yagona asosni belgilaydi hamda yillar davomida va boshqa kompaniyalar bilan taqqoslanadigan, izchil va standart moliyaviy hisobotlarni taqdim etish imkonini beradi [5].

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MXXS) va Umum qabul qilingan buxgalteriya hisobi tamoyillari (US GAAP) kompaniyalar moliyaviy hisobotlarni qanday tayyorlashlari kerakligi haqida aniq yo'riqnomalar beradi. MXXS ko'proq tamoyillarga asoslangan yondashuv bo'lib, u muayyan bitimlarning iqtisodiy mazmunini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Boshqa tomondan, AQSh GAAP — bu ko'proq qoidalarga asoslangan yondashuvdir. Ikkala usul o'rtasidagi farqlar ayniqsa buxgalteriya hisobi siyosati bilan bog'liq turli standartlarda yaqqol namoyon bo'ladi (masalan, GAAP bo'yicha ruxsat etilgan ayrim hisob siyosatlari MXXS bo'yicha qo'llanilmasligi mumkin).

Umuman olganda, hisob siyosati juda xilma-xil bo'lishi mumkin, biroq ularning barchasi MXXS yoki GAAP tomonidan belgilangan standartlarga asoslanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Konservativ hisob siyosati xo'jalik subyekti tomonidan hisobot davridagi moliyaviy natijalarni biroz kamaytirib ko'rsatish, kelgusi davrlarda esa moliyaviy natijalar va ularga bog'liq ko'rsatkichlarni oshirib aks ettirishga yo'naltirilgan yondashuv hisoblanadi. Hisob siyosatining ushbu ko'rinishini tanlash xo'jalik subyektlariga yillar davomida faoliyatini takomillashtirib borish hamda moliyaviy holatining ijobiy o'sish tendensiyasini ko'rsatish imkonini beradi. Eng muhimi, konservativ hisob siyosati investorlar uchun ham qulay holatdir, chunki ularning korxona faoliyatini yildan-yilga yaxshilanib borayotgan holatda baholashlariga asos yaratadi.

Aksincha, agressiv hisob siyosatini tanlagan xo'jalik subyekti o'tgan yillardagi faoliyatiga yuqori baho beradi, ya'ni bu yondashuvda avvalgi hisobot davrlaridagi natijalar yuqoriroq ko'rsatkichlarda aks ettiriladi. Biroq, bu kabi yondashuv ayrim hollarda kelgusida xo'jalik subyekti faoliyatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, agressiv hisob siyosatini tanlashda ehtiyotkorlik talab etiladi, chunki u auditorlar va investorlar orasida ma'lum xavotir uyg'otishi ehtimoli mavjud. Bunda menejerlar tomonidan faoliyati sustlashgan subyekt haqida noaniq yoki noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etilishi xavfi yuzaga keladi.

Shuningdek, xalqaro amaliyotda xo'jalik subyektlari tomonidan hisob siyosati faqat moliyaviy hisobotlarni tuzish maqsadida emas, balki foydani boshqarish va uni belgilangan qoidalar asosida taqsimlash nuqtayi nazaridan ham tanlanishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hisob siyosati bo'yicha xalqaro miqyosda yagona hujjatlardan biri — bu 1-sonli Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (BHXS) "Hisob siyosati, hisob baholardagi o'zgarishlar va xatolar" deb nomlanadi. Mazkur standartning asosiy maqsadi — hisob siyosatidagi o'zgarishlar, hisob baholaridagi tuzatishlar va xatolarni inobatga olish tartibini hamda ularni yoritib berish mexanizmini belgilashdir. Shu bilan birga, u hisob siyosatini tanlash va o'zgartirish mezonlarini aniq ko'rsatib beradi.

Standartning qo'llanishi tashkilot moliyaviy hisobotining ishonchlilikini, solishtiriluvchanligini hamda avvalgi hisobot davrlari va boshqa tashkilotlarning moliyaviy ko'rsatkichlari bilan uyg'unligini oshirishga xizmat qiladi. Hisob siyosati to'g'risidagi ma'lumotlarni yoritish bo'yicha talablar esa 1-son BXXS "Moliyaviy hisobotni taqdim etish" standartida belgilangan.

Muhim jihatlardan yana biri shundaki, ushbu standartning o'zbek tilidagi rasmiy tarjimasini amalga oshirilgan va uni qo'llash uchun tavsiya etilgan [6]. Mazkur jarayon O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya



vazirligining 2024-yil 20-martdagi 23-57-sonli buyrug'ining 1-ilovasi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari hujjatlarini va ularga kiritiladigan o'zgartirishlarni davlat tiliga tarjima qilish tartibi to'g'risidagi nizom"ga muvofiq amalga oshiriladi.

Ushbu nizomga binoan, MXXS Fondi tomonidan xalqaro standartlarga har yili kiritiladigan o'zgartirishlar va tuzatishlar davlat tiliga tarjima qilinadi. Shu munosabat bilan, Fond tomonidan tasdiqlangan MXXS hujjatlarining 2022-yilgi tahriri asosida amaldagi nusxalarga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilmoqda. Hozirda esa 2022–2023-yillar va 2023–2024-yillar tahrirlariga asoslangan yangi loyihalar ishlab chiqilgan.

Yuqoridagi standartda keltirilgan ayrim jummalarni chiqarib tashlash rejalashtirilgan. Xususan, quyidagi ibora endilikda amaldan chiqarilishi ko'zda tutilgan:

"Hisob bahosidagi o'zgarish — aktivlar va majburiyatlarning joriy holatini hamda ular bilan bog'liq kutilayotgan kelgusi naf va javobgarliklarni baholash natijasida aktiv yoki majburiyatning balans qiymatini yoki aktivning davriy iste'moli summasini tuzatishdir. Hisob baholaridagi o'zgarishlar yangi ma'lumotlar yoki voqealar rivoji natijasida yuzaga keladi va shu sababli, xatolarni tuzatish hisoblanmaydi."

Milliy doirada hisob siyosatining huquqiy asosini tashkil etuvchi muhim hujjatlardan yana biri — bu 1-sonli O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (BXMS) "Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati"dir (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 6-avgustda, №3544-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan).

Mazkur milliy standartda hisob siyosatiga quyidagi ta'rif berilgan:

"Hisob siyosati deganda tashkilot rahbarining buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzishda qo'llaydigan usullari, ularning prinsiplari hamda asoslarining majmuasi tushuniladi."

Shuningdek, yuqoridagi BXMSda keltirilgan 6–8-bandlar yuzasidan ayrim ilmiy fikrlar bildirildi.

Birinchidan, fikrimizcha, berilgan ta'rifdagi "rahbar" so'zini "bosh buxgalter" so'zi bilan almashtirish maqsadga muvofiqdir. Chunki tashkilot yoki korxonada buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzish jarayonini bevosita rahbar emas, balki bosh buxgalter va uning yordamchilari amalga oshiradi. To'g'ri, rahbar buxgalteriya faoliyatiga umumiy rahbarlik qilishi mumkin, biroq iqtisodiy hodisalarni qayd etish, ularni umumlashtirish, buxgalteriya registrlarida aks ettirish, turli tamoyillar va prinsiplarga asoslangan holda moliyaviy hisobotlarni shakllantirish hamda taqdim etish jarayonlarida bosh buxgalterning roli hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Hisob siyosatini shakllantirishda xalqaro standartlar talablarini inobatga olgan holda quyidagi ilmiy xulosalarga to'xtalish mumkin:

Fikrimizcha, yuqoridagi ta'rifni quyidagicha qayta belgilash maqsadga muvofiq:

"Hisob siyosati deganda tashkilotning bosh buxgalteri yoki uning o'rinbosari tomonidan buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzishda qo'llaniladigan usullar, prinsiplari va asoslari majmuasi tushuniladi."

Amaldagi 1-sonli Buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS)ning boshqa bir bandida quyidagi jumlagi e'tibor qaratish mumkin:

"Tashkilotning hisob siyosati tashkilot rahbari tomonidan mazkur BXMS asosida, tashkilot faoliyatining turli yillar uchun tuzilgan moliyaviy hisobotlarida keltiriladigan moliyaviy ko'rsatkichlarning bir-biri bilan taqqoslanishini ta'minlash maqsadida shakllantiriladi."

E'tibor berilsa, ushbu bandda ham hisob siyosatini shakllantirish mas'uliyati bevosita rahbar shaxsga yuklatilgan. Holbuki, tashkilotning moliyaviy hisobotlarida keltiriladigan moliyaviy ko'rsatkichlar bevosita buxgalter tomonidan hisoblab chiqiladi va shakllantiriladi. Ushbu ko'rsatkichlar asosida tayyorlangan umumiy hisobotlar va tahliliy xulosalar esa rahbariyatga taqdim etiladi. Shu bois, fikrimizcha, ushbu bandni quyidagicha tahrir etish maqsadga muvofiq:

"Tashkilotning hisob siyosati bosh buxgalter tomonidan tashkilot faoliyatining turli yillar uchun tuzilgan moliyaviy hisobotlarida keltiriladigan moliyaviy ko'rsatkichlarning o'zaro taqqoslanishini ta'minlash maqsadida shakllantiriladi."

XULOSA VA TAKLIFLAR

Natijada, korxonalarda hisob siyosatini ikki xil maqsadda shakllantirish mumkinligini ta'kidlash zarur. Buxgalteriya maqsadlaridagi hisob siyosati moliyaviy hisobotlarni tuzish, taqdim etish va ularning ishonchligini ta'minlashga qaratilgan bo'lsa, soliq maqsadlaridagi hisob siyosati korxonaning soliq majburiyatlarini to'g'ri aniqlash, soliqqa tortish bazasini hisoblash va soliq yuki optimallashtirishga xizmat qiladi. Hisob siyosati har qanday xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatida moliyaviy boshqaruv tizimining markaziy bo'g'ini hisoblanadi. Uning to'g'ri shakllantirilishi korxona resurslaridan oqilona foydalanish, foydani oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi. Shuningdek, xalqaro amaliyotda buxgalteriya hisobining shaffofligi, solishtiriluvchanligi va tahliliy qiymatini oshirish uchun hisob siyosatini xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, O'zbekiston korxonalari uchun MXXS talablariga mos hisob siyosatini



ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish zarur. Mazkur tadqiqot asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi: korxonalarda hisob siyosatini shakllantirishda bosh buxgalter va rahbariyat o'rtasidagi mas'uliyat chegarasini aniq belgilash, qarorlarni jamoaviy asosda qabul qilish tizimini joriy etish; hisob siyosatini ishlab chiqishda xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan konservativ yondashuv elementlarini keng tatbiq etish, chunki bu investorlar ishonchini oshiradi va moliyaviy natijalarning barqarorligini ta'minlaydi; buxgalteriya hisobining milliy standartlari va MXXS o'rtasidagi tafovutlarni muvofiqlashtirish bo'yicha metodik qo'llanmalar ishlab chiqish; korxonalarda hisob siyosatini muntazam monitoring qilish va har yili qayta ko'rib chiqish amaliyotini joriy etish, bu esa tez o'zgarayotgan iqtisodiy sharoitlarga moslashish imkonini beradi; hisob siyosati bo'yicha raqamli texnologiyalar va axborot tizimlaridan (masalan, elektron hisobot modullari, avtomatlashtirilgan audit tizimlari) samarali foydalanish tizimini yo'lga qo'yish. Yuqoridagilardan kelib chiqib, umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, xalqaro amaliyotda xo'jalik subyektlari tomonidan hisob siyosati nafaqat moliyaviy hisobotlarni tuzish, balki foydani belgilangan qoidalar asosida boshqarish nuqtayi nazaridan ham tanlanadi. Bunday yondashuv korxona faoliyatining shaffofligini, ishonchliligini, raqobatbardoshligini hamda samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 4611-sonli qarori. 2020-yil 24-fevral. (3-band) <https://lex.uz/docs/4746047>
2. 8-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti. Hisob siyosati, hisob baholaridagi o'zgarishlar va xatolar. Rasmiy tarjima. 2022-yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (1-sonli BXMS) "Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati"ni tasdiqlash haqida. [O'zR Adliya vazirligi, 2024-yil 6-avgust, №3544].
4. Jo'rayev B.M. Qishloq xo'jaligi korxonalarida hisob siyosatini takomillashtirish. Iqtisod fanlari ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. 2011-yil. – 21 b.
5. <https://corporatefinanceinstitute.com/resources/accounting/accounting-policies/> sayti ma'lumotlari.
6. "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida"gi buyruq. (№3400, 2022-yil 9-dekabr) <https://lex.uz/docs/6312360>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>